


X. KICHIK TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularni erkin faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit va muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar davomida 2023- yil 1-yanvar holatiga ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 33 598 tani tashkil qildi. (2022- yil 1-yanvarga nisbatan 112,1 % ga ko‘pdir).

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining 2022- yil 1- yanvar holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi




Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo tarmog‘ida (jami tashkil etilgan subyektlarning 36,2 %), sanoat sohasida (24,4 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (9,6 %) va qurilishda (7,5 %) tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

	2021- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr
Viloyat bo'yicha jami	6 469	5 542
Namangan shahar	1 749	1 689
Mingbuloq	378	236
Kosonsoy	385	267
Namangan	444	344
Norin	389	335
Pop	405	324
To'raqo'rg'on	481	358
Uychi	455	353
Uchqo'rg'on	449	479
Chortoq	430	397
Chust	536	446
Yangiqo'rg'on	368	314

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Namangan shahrida – 1689 ta, Uchqo'rg'on tumanida – 479 ta, Chust tumani – 446 ta, Chortoq tumanida – 397 ta, To'raqo'rg'on tumanida – 358 ta, Uychi tumani – 353 ta, Namangan tumani – 344 ta, Kosonsoy, Norin, va Pop tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Mingbuloq tumanida 236 tani tashkil etdi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi




2022- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulushi Namangan shahrida – 30,5 %, Uchqurg'on tumanida – 8,6 %, Chust tumanida – 8,0 %, Chortoq tumanida – 7,2 %, To'raqo'rg'on tumanida – 6,5 % va Uychi tumanida – 6,4 % tashkil etdi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 72,8 % (2021- yil yanvar- dekabr oylarida 73,8 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan 262,6 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 45,2 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 501,5 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 72,2 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi

(yanvar-dekabr oylari holatiga, %da)



Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi

(2022- yil yanvar-dekabr)

Iqtisodiy faoliyat turlari	Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi, mlrd. so'm	Jami hajmga nisbatan ulushi, % da
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	26 208,5	94,6
Sanoat	8 331,8	45,7
Qurilish	6 027,3	89,1
Chakana savdo	18174,7	92,3
Yuk tashish, mln. tonna	28,5	91,6
Yo'lovchi tashish, mln. kishi	438,1	97,4

**2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,
(%da)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiyalar
Viloyat bo'yicha jami	45,7	89,1	66,0	65,7
Namangan shahar	52,5	82,9	45,0	58,8
Mingbuloq	49,2	96,0	81,5	49,9
Kosonsoy	38,1	98,8	83,7	75,2
Namangan tuman	68,6	98,9	82,4	70,4
Norin	50,2	100,0	82,8	84,3
Pop	61,8	52,1	74,3	83,8
To'raqo'rg'on	10,8	99,3	74,4	60,6
Uychi	74,5	93,5	83,7	83,2
Uchqo'rg'on	23,3	93,1	78,7	68,4
Chortoq	100,0	96,9	79,5	70,8
Chust	40,6	99,1	75,3	51,3
Yangiqo'rg'on	100,0	100,0	84,5	95,0

Hududlar bo'yicha **sanoat** sohasining yuqori ulushini Chortoq, va Yangiqo'rg'on tumanlari (100,0 %) hamda Uychi (74,5 %) tumanlari tashkil etdi.

Qurilishda –Norin, Yangiqo'rg'on, 100,0 %, To'raqo'rg'on, 99,3 % Chust, tumanida 99,1 % tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida – Yangiqo'rg'on (84,5 %), Uychi (83,7 %), Kosonsoy t (83,7 %), Norin (82,8 %), tumanlari tashkil etdi.

Investitsiyada – Yangiqo'rg'on (95,0 %), Norin (84,3 %), Pop (83,8 %), Uychi (83,2 %) tumanlarida yuqori ulushlarni tashkil etdi.